

JAHON TILSHUNOSLIGIDA FRAZEOLOGIZMLARNING TADQIQI

Xudayqulova Gulnoza Komilovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
doktranti<https://doi.org/10.5281/zenodo.12591413>

ANNOTATSIYA

Frazeologiya tilshunoslik bo'limida keng o'rganilib kelayotgan sohadir. Tilshunoslik bo'limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat e'tibori Frazeologizmlarni, ularni tabiati va belgilarini o'rganishga qaratiladi. Frazeologizm— ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'noviy jihatdan o'zaro bog'liq so'z birikmasidir. Frazeologizm so'z kabi lug'aviy birlik hisoblanadi. Ular ham so'z kabi tilda tayyor holda ham mavjud bo'ladi, Ushbu maqolada frazeologizmlarning shakllanish bosqichi va o'zbek tilshunosligida o'rganilishi, shakllanish bosqichlari hamda ularning asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeologizm, ibora, frazeologik birliklar, frazeologiyaning o'rganilishi, leksema, frazema, lison, badiiy nutq, funksional jihat.

Frazema ko'chma ma'noli turg'un birikmadir. Frazeologiya til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldordir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topgan, obrazli, ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: *kapalagi uchdi, tarvuzi qo'ltig'idan tushdi* va hokazo. Tilshunoslikning boshqa sohalari singari frazeologiya ham o'zining shakllanish va taraqqiyot bosqichlariga ega. Frazeologizmlar tuzilishi, leksik-semantik, funksional-uslubiy va sintaktik vazifalari, shuningdek, o'ziga xos shakllanish xususiyatlariga ega bo'lgan til birligidir. Frazeologiya – tilshunoslikning biror tilga xos barqaror so'z birikmalarini va iboralarni o'rganadigan bo'lim. Frazeologizmlar kelib chiqishi jihatdan juda qadimiy bo'lsa-da, frazeologiya fani qariyb ikki yuz yilni o'z ichiga oladi. Frazeologiya ilmining asoschisi fransuz olimi Sharl Ballidir. U o'zining "Fransuz stilistikasi" (1909) nomli asarida so'z birlashmalari, ya'ni frazeologik birliklarni tadqiq etuvchi maxsus boblar kiritgan.

Bundan tashqari rus tilshunos olimlari ham bu sohada ko'p izlanishlar olib borishgan. Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida 20-asrning 40-yillarida rus tilshunosligida paydo bo'lgan. Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A. A. Potebnya, I. I. Sreznevskiy, A. A. Shaxmatov asarlarida asos solingan bo'lsa, barqaror (turg'un) so'z birikmalarini alohida tilshunoslik bo'limi — Frazeologiyada o'rganish masalasi 20—40-yillardagi o'quv-metodik adabiyotlarda — Ye.D. Polivanov, S. Abakumov, L. A. Bulaxovskiy asarlarida ko'tarib chiqilgan. V.Jukov frazeologizmlarning kategoriya va ma'nolarini aniqlagan. V.Vinogradov esa iboralarni leksik qatlam sifatida ma'no guruhlariga ko'ra tasniflaydi.

Ingliz tilshunosi Smirnitskiy esa frazeologiyaning alohida tilshunoslik sohasi ekanligi tarafdori bo'lgan. Frazeologik birikmalar nazariyasi bilan leksikologiyaning bir bo'limi bo'lgan frazeologiya o'rganishiga qaramasdan, u tilning sintaktik qismida o'rganilishi zarur. Agar biz frazeologiyani alohida soha deb tan olmaydigan bo'lsak, uni alohida fan debaytolmaymiz degan edi Smirnitskiy — "Лексикология английского языка" asarida.

O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o'tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Shu kungacha frazeologizmlar turli jihatlardan o'rganilgan (Sh. Rahmatullayev, B.

Yo'ldoshev, A. Mamatov va boshqalar), Frazzeologiya bo'yicha bir necha lug'atlar tuzilgan (Sh. Rahmatullayev, M. Sodiqova), yozuvchilardan Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Oydin, Said Ahmad asarlarining frazeologik tarkibi tadqiq etilgan. Frazzeologizmlar ayniqsa Sh. Rahmatullayev, M. Sodiqova, I. Qo'chqortoyev, A. Rafiyev kabi olimlar ishlarida keng o'rganilgan.

Uning o'rganilishiga boshlang'ich va asosiy qadamni qo'ygan tilshunos Sh. Rahmatullayev hisoblanadi. U birinchilardan bo'lib o'zbek tilshunosligining frazeologiya sohasini tadqiq eta boshlagan va natijada uning "Hozirgi o'zbek tilida obrazli fe'li frazeologik birliklarning asosiy grammatik xususiyatlari" mavzusidagi monografik tadqiqoti maydonga kelib, uni 1952-yilda muvaffaqiyatli himoya qilgan. Keyinchalik Sh. Rahmatullayev o'zining mazkur sohadagi ilmiy-tadqiqot ishini davom ettirib, 1966-yilda "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1992-yilda Sh. Rahmatullayev tomonidan nashr etilgan "O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi" nomli monografiyasi ushbu sohada yaratilgan dastlabki tadqiqot natijalaridan biri hisoblanadi. Unda frazeologizmlarning semantik strukturasiga alohida ta'rif berilgan bo'lib, ularni o'zaro darajasiga qarab izohlab bergan. Olimlar o'rgangan ishlarida frazeologizm masalalari yetarli darajada tahlil qilingan. So'zlashuv nutqida faol foydalaniladigan hamda turli badiiy matnlarda qo'llanilgan frazeologik birliklarga doir misollar orqali o'rganilganligi ahamiyatlidir. Bundan tashqari frazeologiyaga doir dastlabki ma'lumotlar turg'un birikmalarga oid ilk nazariy fikrlar grammatika va stilistikaga, ayrim o'zbek shoirlari, yozuvchilarining badiiy mahorati tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda ko'zga tashlanadi. Bunday ishlar A. G'ulomov, U. Tursunov, V. Abdullayev, H. Zarif, N. Mallayev singari mashhur tilshunos va adabiyotshunos olimlarning qalamiga mansubdir. Jumladan, A. Sa'diy, V. Abdullayev kabi adabiyotshunoslarning A. Navoiy asarlarida turg'un birikmalar, xalq iboralarining qo'llanilishiga oid fikrlari hozir ham o'z qimmatini saqlab kelmoqda. Tadqiqotchilar frazeologizmlarni o'rganishda bir qator muammolarga duch kelis hini ta'kidlashadi. Qoraqalpoq tilida frazeologizmlarning grammatik tarkibi va tuzilishi masalalari, yasaliish yo'llari maxsus tarzda o'rganilgan emas. Faqat E. Berdimuratov, J. Eshbayev va G. Aynazarovalarning tadqiqotlarida frazeologizmlar grammatik tarkibi jihatidan fe'l frazeologizmlar, ot frazeologizmlar, sifat va ravish ma'noli frazeologizmlar deb to'rtta guruhga ajratganlar. M. Y. Vafoyeva bu ilmiy tadqiqotni tayyorlash jarayonida asosiy tadqiqot manbayi sifatida o'zbek adabiyotining yorqin vakillari hisoblanmish Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Pirimqul Qodirov, Tohir Malik, O'tkir Hoshimovlarning asarlaridan foydalangan. Dissertatsiyaning ilmiy yangiliklari sifatida o'zbek tilidagi sinonimiya hodisasining keng tarqalish sabablari, shuningdek, frazeologik sinonimiya hodisasining tilshunoslikda o'rganilishiga o'z munosabatlarini bildirib o'tgan. Shu bilan birgalikda o'zbek tilining publitsistik va badiiy uslublariga oid bo'lgan matnlar tarkibidagi frazeologik sinonimlarga mansub misollar to'plangan va alohida tartib bo'yicha joylashtirilgan. Faqat E. Berdimuratov, J. Eshbayev va G. Aynazarovalarning tadqiqotlarida frazeologizmlar grammatik tarkibi jihatidan fe'l frazeologizmlar, ot frazeologizmlar, sifat va ravish ma'noli frazeologizmlar deb to'rtta guruhga ajratganlar.

Lekin badiiy matnlarda yozuvchi uslubiga oid frazeologik birliklarni o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar olib borish bugungi kundagi muhim ishlardan hisoblanadi. Barcha shoir, yozuvchi olimlarning frazeologiyani asarlarida ishlatishida o'ziga xos uslubi bor. Adabiyotimizning yetuk namoyondalari A. Qodiriy, G. G'ulom, O. Hoshimov ijodlarini

kuzatganimizda frazeologik birliklardan samarali foydalanganlarini ko'ramiz. Chunki, frazeologizmlar badiiy adabiyotda obrazli va ta'sirchan vosita sifatida qo'llaniladi. Til birligi hisoblangan frazeologizmlarning badiiy matnda tadqiq va tahlil etilishi muhimdir. Frazeologizmlar badiiylikni ochib beruvchi unsur hisoblanadi. Badiiy nutqqa o'zgacha joziba, ko'tarinki ruh, yengillik baxsh etadi. Albatta ma'no va mazmunini yanada tasirchanligini oshiradi. Shuning uchun frazeologiya bo'limini hozirgacha ham o'rganish butun dunyoda dalzarb mavzu hisoblanadi.

References:

1. Sayfullayeva.R. Mengliyev.B va boshqalar. Hozirgi o'zbek tili. O'quv qo'llanma. – T.: «Fan va texnologiya», 2009. – B. 117.
2. Balli Sh. Французская стилистика. М.: Из-во иностр. лит-ры, 1961. –С. 89-90.
3. Грамматикой русского языка. Виногадов. 1952-1954 йй
4. Jukov A.V. Фразеологическая преходность в русском языке. Л.: ЛГПИ им. А.И.Герцена, 1984. –С. 25-31.
5. Рахматуллаев Ш. Лексема ва фразема маъносини компонент таҳлилнинг баъзи натижалари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1986. № 3. – Б. 19-20; Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви.
6. M.Y.Vafoyeva. "O'zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili". Toshkent. 2009. 127-bet. Dis-378/2010.
7. Халикова М.К. Фразеология как форма отражения национального менталитета в языковой картине (на материале русского и узбекского языков). АҚД. – Ташкент, 1999. – 26 с.
8. Абдуллаев Ш.Д. Таржима асарларда фразеологизмлар семантикаси (Т.Қайипбергенов асарларининг ўзбекча таржимаси асосида). НДА. - Тошкент: 2006. – 21 б